



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминлар, усуллар ва замонвий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
9.	Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
10.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o'tish istiqbollari	65
11.	Мурадов Бахром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
12.	Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
13.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
14.	Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
15.	Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
16.	Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
17.	Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
18.	Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
19.	Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo'yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo'llari	131
20.	Doniyev Shahob O'tkir o'g'li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
21.	Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta'minlash	142
22.	Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
23.	Mirmahmudova Xusniddinovna Nozima	O'zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160





24.	Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta‘minotini boshqarish usullari	167
25.	Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlari	179
26.	Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag‘batlantirishni takomillashtirish	191
27.	Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
28.	Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta‘minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
29.	Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
30.	Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
31.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
32.	Uralov Elshod Sirojiddin o‘g‘li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
33.	Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
34.	Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
35.	Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
36.	Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
37.	Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O‘zbekistonda mikro, kichik va o‘rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
38.	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
39.	Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
40.	Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294





ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISHNING HUQUQIY BOSHQARUV ARXITEKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev Rustam Rajabovich

*Innovatsion rivojlanish agentligi
Tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini
rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
E-mail: darkman_07@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni huquqiy boshqarishning yaxlit arxitekturasini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Amaldagi intellektual mulk, shartnoma, moliyalashtirish va innovatsion faoliyat normalarining alohida qo'llanishi ilmiy natijaning yaratilishidan bozor muomalasiga kirishigacha bo'lgan jarayonda huquq, vakolat va javobgarlik uzluksizligini har doim ham ta'minlamasligi asoslangan. Tadqiqot natijasida besh pog'onali huquqiy boshqaruv modeli taklif etilgan: maxsus qonun; qaror muddatlari va namunaviy hujjatlarni belgilovchi qonunosti tartiblari; oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning ichki tijoratlashtirish siyosati; litsenziya, ulush va investitsiya munosabatlarini individuallashtiruvchi shartnomaviy mexanizmlar; raqamli reyestr va monitoring qoidalari. Maxsus tartibda ishlanmani oshkor qilish, huquq egaligini aniqlash, tijorat salohiyati bo'yicha qaror, manfaatlar to'qnashuvi, daromad taqsimoti, davlat mablag'i hisobdorligi, litsenziyalash, spin-off, reyestr va nizolarni hal qilish masalalarini o'zaro bog'lash taklif qilingan. Arxitektura uzluksizlik, vakolat va javobgarlikning mosligi hamda huquqiy qarorlarning tekshiriluvchanligi tamoyillariga asoslangan. Qaror muddatini huquqiy tartibning texnik detali emas, balki tijoratlashtirish tezligiga bevosita ta'sir qiluvchi boshqaruv omili sifatida belgilash taklif etiladi. Model huquqiy aniqlikni oshirish, qaror vaqtini qisqartirish va tijoratlashtirish subyektlari javobgarligini aniq belgilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy ishlanma, tijoratlashtirish, huquqiy arxitektura, intellektual mulk, litsenziyalash, manfaatlar to'qnashuvi, daromad taqsimoti, innovatsion faoliyat.

УЛУЧШЕНИЕ АРХИТЕКТУРЫ ПРАВОВОГО УПРАВЛЕНИЯ КОММЕРЦИАЛИЗАЦИЕЙ НАУЧНЫХ РАЗРАБОТОК

Эргашев Рустам Раджабович

*начальник отдела развития
коммерциализации и трансфера технологий
Агентства инновационного развития
E-mail: darkman_07@mail.ru*

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования целостной архитектуры правового управления коммерциализацией научных разработок. Она основана на том факте, что раздельное применение действующих норм интеллектуальной собственности, договорного права, финансирования и инновационной деятельности не всегда обеспечивает непрерывность прав, полномочий и обязанностей в процессе от создания научного результата до его выхода на рынок. В результате исследования предложена пятиэтапная модель правового управления: специальный закон; подзаконные акты, устанавливающие сроки принятия решений, и типовые документы; внутренняя политика коммерциализации высших учебных и научных организаций; договорные механизмы, индивидуализирующие лицензионные, долевыe и инвестиционные отношения; правила цифрового реестра и мониторинга. Предлагается в специальном порядке связать вопросы раскрытия информации о разработке, определения права собственности, принятия решения о коммерческом потенциале, конфликта интересов, распределения доходов, подотчетности государственных средств, лицензирования, выделения дочерних





компаний, регистрации и разрешения споров. Архитектура основана на принципах преемственности, соответствия полномочий и ответственности, а также проверяемости правовых решений. Предлагается определять период принятия решения не как техническую деталь юридической процедуры, а как управленческий фактор, непосредственно влияющий на скорость коммерциализации. Модель направлена на повышение правовой определенности, сокращение времени принятия решения и четкое определение ответственности субъектов коммерциализации.

Ключевые слова: научная разработка, коммерциализация, правовая архитектура, интеллектуальная собственность, лицензирование, конфликт интересов, распределение доходов, инновационная деятельность.

IMPROVING THE LEGAL GOVERNANCE ARCHITECTURE FOR THE COMMERCIALIZATION OF RESEARCH DEVELOPMENTS

Rustam Rajabovich Ergashev

*Head of the Department for
Commercialization and
Technology Transfer Development,
Agency for Innovative Development,
E-mail: darkman_07@mail.ru*

Abstract. *The article examines the development of an integrated legal governance architecture for research commercialization. It argues that fragmented rules on intellectual property, financing, contracts and innovation activities may not ensure continuity of rights, authority and accountability from the creation of a research result to a market transaction. A five-layer governance architecture is proposed: a dedicated legislative framework; subordinate procedures defining decision deadlines and standard documents; internal commercialization policies of universities and research institutions; contractual mechanisms governing licensing, equity and investment relations; and digital registry and monitoring rules. The proposed framework links research disclosure, determination of ownership, decisions on commercial potential, conflict-of-interest management, revenue distribution, accountability for public funding, licensing, spin-off arrangements, registry requirements and dispute resolution. The architecture is based on continuity, alignment of authority with responsibility, and the verifiability of legal decisions. Decision time is treated not merely as a procedural detail but as a management factor that can directly affect the speed of commercialization and private-sector participation. The model is designed to increase legal certainty, reduce decision delays and clarify accountability among actors involved in research commercialization while leaving transaction-specific economic terms to contractual arrangements.*

Keywords: *research development, commercialization, legal architecture, intellectual property, licensing, conflict of interest, revenue distribution, innovation policy.*

Kirish

Ilmiy ishlanmani bozor mahsuloti, xizmat yoki texnologiyaga aylantirishning deyarli har bir bosqichida huquqiy qaror mavjud: ilmiy natija kimga tegishli, uni qachon oshkor qilish mumkin, qaysi himoya rejimi tanlanadi, tashqi hamkor bilan qanday bitim tuziladi va daromad kimlar o'rtasida qanday taqsimlanadi. Davlat mablag'i ishlatilgan hollarda bu savollarga yaratilgan iqtisodiy qiymat ustidan hisobdorlik masalasi ham qo'shiladi. Demak, huquqiy boshqaruv faqat yakuniy shartnoma tuzish bosqichi emas, balki ilmiy natijaning yaratilishidan tijorat natijasigacha davom etuvchi jarayondir.

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunida tijoratlashtirish yangi ishlanmalarni foyda olish maqsadida fuqarolik muomalasiga kiritish jarayoni sifatida belgilangan [1]. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish





strategiyasi g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [2]. 2026-yildagi huquqiy hujjatlar esa yangi ishlanmalar asosida ishlab chiqarish, spin-offlar va olim-tadbirkor hamkorligini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha institutsional asoslarni shakllantirdi [3], [4].

Biroq alohida huquqiy institutlarning mavjudligi ularning yagona tijoratlashtirish sikli sifatida ishlashini avtomatik ta'minlamaydi. Huquq egaligi, tijorat salohiyati, litsenziyalash, daromad taqsimoti va monitoring bir-biridan uzilgan holda tartibga solinsa, qarorlar kechikadi, xususiy sherikning tavakkali ortadi va manfaatlar to'qnashuvi kuchayadi. Maqolaning maqsadi mazkur munosabatlarni yaxlit huquqiy boshqaruv arxitekturasini sifatida tizimlashtirish va uning asosiy qatlamlarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Innovatsiyalar iqtisodiyotida huquqiy rejimning ahamiyati texnologiyadan qiymat olish imkoniyati bilan bog'lanadi. Teece texnologik ustunlikning o'zi yetarli emasligini, qiymatni o'zlashtirish huquqiy rejim va to'ldiruvchi aktivlarga ham bog'liqligini ko'rsatgan [5]. Jensen va Thursby universitet ishlanmalari ko'pincha litsenziyalash vaqtida qo'shimcha rivojlantirishni talab qilishini aniqlagan [6]; Thursby va Kemp esa universitetlar o'rtasida litsenziyalash samaradorligi sezilarli farqlanishini ko'rsatgan [7]. Bu natijalar litsenziya shartnomasi va institutsional tartiblarning texnologiyaning keyingi rivojiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Siegel, Waldman va Link tashkiliy amaliyotlarning texnologiyalar transferi samaradorligiga ta'sirini empirik asoslagan [8]. Lach va Schankerman daromad taqsimoti bilan olimlarning rag'batlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan [9]. Perkmann va hammualliflar universitet-sanoat munosabatlari litsenziyalashdan tashqari shartnomaviy tadqiqot, konsalting va qo'shma loyihalarni ham qamrab olishini ta'kidlaydi [10], Baglieri, Baldi va Tucci esa TTO biznes-modellarining institutsional sharoitga qarab farqlanishini ko'rsatgan [11].

Triple Helix va Open Innovation yondashuvlari universitet, biznes va davlat o'rtasidagi bilim oqimlari kengaygani sari huquq, javobgarlik va maxfiylikni aniq belgilash zarurati kuchayishini ko'rsatadi [12], [13]. WIPO texnologiyalar transferida intellektual mulk strategiyasi, litsenziyalash va muzokarani markaziy elementlar sifatida ko'radi [14]. OECD, Oslo Manual, UNCTAD va Jahon banki materiallari ham davlat tadqiqotlarini iqtisodiyot bilan bog'lashda institutsional aniqlik va natijalarni izchil kuzatish zarurligini ta'kidlaydi [15]–[18]. Shundan kelib chiqib, tijoratlashtirish huquqini patent huquqi bilan cheklamasdan, oshkor qilish, mulkiy huquqlar, maxfiylik, vakolat, davlat mablag'i, litsenziyalash, investitsiya, daromad taqsimoti, monitoring va nizolarni yagona tizimda ko'rish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda institutsional, tizimli, huquqiy-funksional va qiyosiy tahlil hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil obyekti ilmiy ishlanmaning yaratilishidan tijorat natijasi qayd etilguniga qadar yuzaga keladigan huquqiy boshqaruv munosabatlaridir. Model uch tamoyilga qurildi: uzluksizlik — bir bosqichdagi huquqiy qaror keyingi bosqich bilan bog'lanadi; vakolat va javobgarlikning mosligi — qaror subyekti, muddati va mas'uliyati birgalikda belgilanadi; tekshiriluvchanlik — qarorlar keyinchalik tekshirish mumkin bo'lgan hujjat va qaydda aks etadi.

Huquqiy tartibga solish besh qatlamga ajratildi: maxsus qonun, qonunosti protseduralari, tashkilotning ichki siyosati, shartnomaviy tartibga solish hamda raqamli reyestr va monitoring. Ko'rsatkich va monitoring mantig'ini shakllantirishda bilim transferi metrikalarini uyg'unlashtirish bo'yicha yondashuvlar [19] hamda innovatsion faoliyatni o'lchash bo'yicha ISO 56008:2024 tavsiyalari [20] metodologik tayanch sifatida qo'llanildi. Maqola alohida xorijiy qonunchilik tizimlarini empirik qiyoslashni maqsad qilmaydi.

Tahlil va natijalar

Huquqiy fragmentatsiya muammosi





Tijoratlashtirishda zarur normalarning mavjudligi bilan ularning yagona jarayon sifatida ishlashi bir xil holat emas. Intellektual mulk huquqi mavjud bo'lsa-da, ishlanmani kimga va qancha muddatda oshkor qilish tartibi belgilanmasa, huquqiy boshqaruv kechikadi. Daromad taqsimoti umumiy tartibda nazarda tutilgan bo'lsa-da, muallif, ilmiy jamoa va tashkilot ulushi oldindan aniq bo'lmasa, bitim bosqichida ichki nizo yuzaga keladi. Shu sababli vazifa yangi normalar sonini ko'paytirish emas, zarur normalarni birinchi huquqiy qarordan yakuniy iqtisodiy voqeagacha yagona ketma-ketlikka ulashdir.

Besh pog'onali huquqiy boshqaruv arxitekturas

1-jadval.

Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning besh pog'onali huquqiy arxitekturas*

Daraja	Tartibga solish predmeti	Asosiy vazifa
I. Maxsus qonun	Umumiy prinsiplar, subyektlar, huquq va javobgarlik	Yagona huquqiy asos
II. Qonunosti tartiblar	Muddatlar, protseduralar, namunaviy hujjatlar	Qonunni amaliy jarayonga aylantirish
III. Ichki siyosat	Vakolatlar, ichki qarorlar, mualliflar bilan munosabat	Institutsional aniqlik
IV. Shartnomaviy qatlam	Litsenziya, ulush, investitsiya va boshqa bitimlar	Munosabatlarni individuallashtirish
V. Reyestr va monitoring	Qaror, hujjat, bitim va natijalarni kuzatish	Hisobdorlik va tekshiriluvchanlik

*Muallif ishlanmasi

Modelda har bir daraja boshqa qatlamni almashtirmaydi: qonun majburiy prinsip va javobgarlikni, qonunosti hujjati bajarish protsedurasini, ichki siyosat tashkilotdagi vakolatni, shartnoma aniq tomonlar munosabatini, reyestr esa qaror va natija tarixini belgilaydi.

Maxsus huquqiy tartibning asosiy bloklari

2-jadval.

Maxsus huquqiy tartibda nazarda tutilishi lozim bo'lgan munosabatlar*

Blok	Asosiy huquqiy savol
Ishlanmani oshkor qilish	Yangi natija haqida kim, kimga va qanday tartibda xabar beradi?
Huquq egaligi	Mulkiy huquq kimga tegishli va u qanday tasdiqlanadi?
Tijorat salohiyati	Qarorni kim va qancha muddatda qabul qiladi?
Manfaatlar to'qnashuvi	Manfaatlar qanday oshkor qilinadi va boshqariladi?
Daromad taqsimoti	Tijorat daromadi ishtirokchilar o'rtasida qanday taqsimlanadi?
Davlat mablag'i	Davlat resursi hisobidan yaratilgan qiymat bo'yicha qanday hisobdorlik bo'ladi?
Litsenziyalash	Huquqdan foydalanish shartlari qanday belgilanadi?
Spin-off	Intellektual mulk va ulush munosabatlari qanday tartibga solinadi?
Reyestr	Qaysi qaror va iqtisodiy voqealar qayd etiladi?
Nizolar	Kelishmovchiliklar qaysi mexanizm orqali hal etiladi?

*Muallif ishlanmasi





Mazkur bloklar o‘zaro bog‘liq: daromad taqsimoti huquq egaligiga, litsenziyalash mulkiy huquqning aniqligiga, spin-offga ulush kiritish aktivning huquqiy maqomiga, davlat hisobdorligi esa tekshiriladigan natija qaydiga tayanadi.

Oshkor qilish, huquq egaligi va qaror muddati

Disclosure tijoratlashtirish huquqiy tizimining boshlang‘ich protsedurasi bo‘lishi kerak. Unda ilmiy natija mazmuni, mualliflar, yaratilish va moliyalashtirish manbasi, mavjud shartnomaviy majburiyatlar, avvalgi ochiq e‘lonlar va intellektual mulk hujjatlari qayd etiladi. Bu hujjat keyinchalik mualliflik, huquq rejimi va uchinchi tomon majburiyatlarini tekshirish uchun boshlang‘ich dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Potensial hamkor uchun asosiy savollardan biri texnologiyani berishga kim vakolatli ekanidir. Shu sababli huquq egaligini aniqlash faqat yuridik xulosa emas, tijoratlashtirish tezligiga ta‘sir qiluvchi boshqaruv omilidir. Vakolatli subyekt, talab etiladigan hujjatlar, tekshirish mezon, qaror muddati va rasmiylashtirish shakli oldindan belgilanishi lozim. Huquq mavjud bo‘lsa-yu, qaror bir necha oy cho‘zilsa, bu xususiy sektor uchun amaliy to‘siqqa aylanadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi, daromad va davlat hisobdorligi

Tijoratlashtirishda olim bir vaqtning o‘zida ilmiy tashkilot xodimi va ishlanma asosidagi korxona ta‘sischisi bo‘lishi mumkin. Bunday holatning o‘zi huquqbuzarlik emas; xavf manfaat oshkor qilinmaganda va qaror jarayoni boshqarilmaganda yuzaga keladi. Shu sababli manfaatni oshkor qilish, manfaatdor shaxsni tegishli qarordan cheklash, mustaqil baholash va zarur hollarda kollegial ko‘rib chiqish mexanizmlari oldindan belgilanadi.

Daromad taqsimoti ham motivatsion-huquqiy vositadir. Olimning rag‘bati, ilmiy jamoa manfaatlari va tashkilotning laboratoriya, patentlash, yuridik hamda tijoratlashtirish xarajatlarini qayta moliyalashtirish ehtiyoji muvozanatlashtirilishi kerak. Eng muhim shart — taqsimot qoidasi bitimdan keyin emas, oldindan ma‘lum bo‘lishi. Davlat mablag‘i hisobidan yaratilgan ishlanmalarda esa hisobdorlik har bir operatsiyaga ma‘muriy aralashuv orqali emas, berilgan huquq, kontragent, iqtisodiy majburiyat, to‘lov va keyingi xususiy mablag‘ kabi tekshiriladigan ma‘lumotlar orqali ta‘minlanishi maqsadga muvofiq.

Qonunosti tartiblar, ichki siyosat va shartnomaviy qatlam

Maxsus qonun barcha tijorat bitimlarining iqtisodiy shartlarini belgilamasligi kerak. Uning vazifasi kritik noaniqliklarga umumiy va majburiy javob berishdir. Qonunosti tartiblar esa disclosure shakli, huquq egaligini aniqlash, tijorat salohiyatini ko‘rib chiqish, manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish, qaror muddatlari, minimal shartnomaviy talablar va reyestrda ma‘lumot kiritish kabi protseduralarni standartlashtiradi. Namunaviy hujjatlar minimal standart bo‘lib, turli texnologiyalarni bir xil iqtisodiy shartlarga majburlamasligi lozim.

Tashkilotning ichki tijoratlashtirish siyosati milliy huquq bilan kundalik boshqaruv o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi: kim ishlanmani qabul qiladi, dastlabki tekshiruvni bajaradi, qaysi qarorni kim qabul qiladi, muallif bilan munosabat va maxfiylik qanday yuritiladi. Shartnomaviy qatlam esa litsenziya, investitsiya yoki ulush bitimlarida hudud, muddat, eksklyuzivlik, to‘lov, rivojlantirish majburiyati, maxfiylik va javobgarlikni aniq holatga moslashtiradi. Demak, qonun shartnomani almashtirmaydi, balki uni tuzish uchun huquqiy aniqlik yaratadi.

Reyestr, monitoring va nizolar

Raqamli reyestr statistik ombor bilangina cheklanmasdan, huquqiy qarorlar izini saqlaydigan infratuzilma bo‘lishi kerak. Unda ishlanmaning oshkor qilinishi, huquq egaligi, tijorat qarori, bitim, qo‘llab-quvvatlash chorasi va iqtisodiy natijaning sanasi hamda dalili qayd etiladi. Bunday tarix audit yoki nizoda dalil ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga “tijoratlashtirildi” kabi status qaysi hujjat yoki iqtisodiy voqea asosida qo‘yilishi oldindan aniq bo‘lishi zarur; aks holda raqamlashtirish eski noaniqlikni elektron shaklga ko‘chiradi.

Ko‘p subyekтли tijoratlashtirishda nizolarni butunlay yo‘q qilish mumkin emas. Mualliflik, mulkiy huquq, litsenziya, daromad, maxfiylik va korporativ manfaatlar bo‘yicha nizolar uchun ichki ko‘rib chiqish, muzokara va qonunchilikda nazarda tutilgan himoya vositalari izchil bog‘lanishi lozim. Muhim prinsip — tomonlar nizo yuzaga kelgandan keyin emas, bitim





tuzilayotganda uni hal qilish mexanizmini bilishi.

Taklif etilgan arxitektura “ko‘proq qonun — ko‘proq tijoratlashtirish” degan oddiy bog‘liqlikka asoslanmaydi. Ortiqcha normalar, komissiyalar va kelishuv bosqichlari tranzaksiya xarajatini oshirishi mumkin. Shu sababli har bir yangi talab “u bitimdagi qaysi aniq riskni kamaytiradi?” mezoni bilan baholanishi kerak. Qonun umumiy prinsip va minimal majburiy qoidalarni belgilaydi, farmatsevtik ishlanma, dasturiy mahsulot yoki muhandislik texnologiyasining konkret iqtisodiy shartlari esa shartnoma darajasida qoladi.

Ikkinchi muhim masala — davlat, ilmiy tashkilot va tadqiqotchi manfaatlari muvozanati. Huquqiy model olim rag‘batini saqlashi, shu bilan birga tashkilot va davlat yaratgan infratuzilma manfaatini ham himoya qilishi kerak. Qaror muddati ham texnik detal emas: investor huquqiy qarorni uzoq kutsa, bozor imkoniyati yo‘qolishi mumkin. Maxsus qonun mavjud huquq institutlarini almashtirmasdan, ularning tijoratlashtirish siklidagi qo‘llanish nuqtalarini bog‘lashi lozim.

Xulosa

Tadqiqot ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni faqat intellektual mulk yoki yakuniy shartnoma orqali tartibga solish yetarli emasligini ko‘rsatdi. Huquqiy qarorlar ishlanmani oshkor qilishdan tijorat natijasini qayd etishgacha yagona jarayonda bog‘lanishi kerak. Shu maqsadda maxsus qonun, qonunosti protseduralari, tashkilot ichki siyosati, shartnomaviy mexanizmlar hamda raqamli reyestr va monitoringdan iborat besh pog‘onali arxitektura taklif etildi.

Maxsus tartibning vazifasi huquq egaligi, qaror vakolati va muddati, manfaatlar to‘qnashuvi, daromad taqsimoti, davlat hisobdorligi, litsenziyalash, spin-off, reyestr va nizolar bo‘yicha kritik noaniqliklarni kamaytirishdir. Daromad va manfaatlar to‘qnashuvi qoidalari oldindan belgilanib, iqtisodiy shartlar shartnomada individuallashtirilishi lozim. Reyestr qaror va iqtisodiy voqealarning tekshiriladigan tarixini saqlashi kerak. Huquqiy boshqaruvning asosiy mezoni hujjatlar soni emas, huquq, vakolat, muddat va javobgarlik uzluksizligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida,” O‘RQ-630-son Qonun, 2020-yil 24-iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida,” PF-165-son Farmon, 2022-yil 6-iyul.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Mamlakatda yangi ishlanmalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish tizimini joriy qilish hamda ilm-fanni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida,” PF-54-son Farmon, 2026-yil 4-aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, “Tadbirkorlik subyektlari hamda ilmiy hamjamiyat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida,” 75-son qaror, 2026-yil 23-fevral.
5. D. J. Teece, “Profiting from technological innovation: Implications for integration, collaboration, licensing and public policy,” *Research Policy*, vol. 15, no. 6, pp. 285–305, 1986, doi: 10.1016/0048-7333(86)90027-2.
6. R. Jensen and M. Thursby, “Proofs and prototypes for sale: The licensing of university inventions,” *American Economic Review*, vol. 91, no. 1, pp. 240–259, 2001.
7. J. G. Thursby and S. Kemp, “Growth and productive efficiency of university intellectual property licensing,” *Research Policy*, vol. 31, no. 1, pp. 109–124, 2002.
8. D. S. Siegel, D. A. Waldman, and A. N. Link, “Assessing the impact of organizational practices on the relative productivity of university technology transfer offices,” *Research Policy*, vol. 32, no. 1, pp. 27–48, 2003.
9. S. Lach and M. Schankerman, “Incentives and invention in universities,” *RAND Journal of Economics*, vol. 39, no. 2, pp. 403–433, 2008.
10. M. Perkmann, V. Tartari, M. McKelvey et al., “Academic engagement and





commercialisation: A review of the literature on university–industry relations,” *Research Policy*, vol. 42, no. 2, pp. 423–442, 2013.

11. D. Baglieri, F. Baldi, and C. L. Tucci, “University technology transfer office business models: One size does not fit all,” *Technovation*, vols. 76–77, pp. 51–63, 2018, doi: 10.1016/j.technovation.2018.05.003.

12. H. Etzkowitz and L. Leydesdorff, “The dynamics of innovation: From National Systems and ‘Mode 2’ to a Triple Helix of university–industry–government relations,” *Research Policy*, vol. 29, no. 2, pp. 109–123, 2000.

13. H. W. Chesbrough, *Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology*. Boston, MA, USA: Harvard Business School Press, 2003.

14. World Intellectual Property Organization, *Knowledge and Technology Transfer: From Lab to Market*. Geneva, Switzerland: WIPO.

15. OECD, *Commercialising Public Research: New Trends and Strategies*. Paris, France: OECD Publishing, 2013.

16. OECD/Eurostat, *Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation*, 4th ed. Paris, France: OECD Publishing, 2018, doi: 10.1787/9789264304604-en.

17. UNCTAD, *Science, Technology and Innovation Parks in Uzbekistan: Assessment and Policy Issues*. Geneva, Switzerland: United Nations Conference on Trade and Development, 2024.

18. World Bank, *Uzbekistan: Modernizing Uzbekistan National Innovation System Project (P170206), Restructuring Paper*. Washington, DC, USA: World Bank, Mar. 30, 2026.

19. A. Campbell, C. Cavalade, C. Haunold, P. Karanikic, and A. Piccaluga, *Knowledge Transfer Metrics: Towards a European-wide Set of Harmonised Indicators*. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020, doi: 10.2760/907762.

20. International Organization for Standardization, *ISO 56008:2024 Innovation Management — Tools and Methods for Innovation Operation Measurements — Guidance*. Geneva, Switzerland: ISO, 2024.

